



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH.

M.Isaxanova

Qo‘qonDPI o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ko`p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘sghan ajdodlarimizning bebaho merosini o‘rganish, uning asosida yoshlarni komil inson yetib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy ma’naviy muhitni ta’minlashning muhim shartlaridan biri ekanligi haqida bayon etilgan

Kalit so`zlar: shax, o‘quvchilar, milliy qadriyatlar, an’analar, urf-odat, madaniy meros, tarbiya, hulq-atvor.

Kirish: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash jarayoni, bola shaxsi ruhiy holati va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlarni o‘rganish esa bolalarning psixologik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarbiyalashda milliy qadriyatlarni o‘rgatishning psixologik asoslari va metodlari ko‘rib chiqiladi.

An’analar — juda murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy hodisalar bo‘lib, ular ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. Har bir xalqning ilg‘or va qoloq an’analari mavjud. An’ananing ilg‘orligi yoki qoloqligi, avvalo, jamiyat hayotidagi roli bilan bog‘liqdir. Ilg‘or an’analalar doimo xalq manfaatlari uchun xizmat qilgan va qilmoqda. Ular tarixiy sharoitlarda vujudga kelib, jamiyatning ma’lum ehtiyojlarini qondirgan. Eskirib qolgan unsur yaxshi sharoitlarda yuzaga kelgan, mazmuni jihatidan yangi bo‘lgan unsurlarga o‘z o‘rnini bo‘shatib bergen. Shu sababli ham tarixiy taraqqiyot davomida xalq turmushining yangi sharoiti talablariga javob beradigan ba’zi an’analalar saqlanib qoladi va xalq ommasi manfaatlariga uzoq vaqt xizmat qiladi, ayrimlari esa o‘z umrini o‘tab, o‘rnini jamiyat taraqqiyoti yuzaga keltirgan yangi an’analarga bo‘shatib beradi. Taraqqiyot davomida kishilarning, yangi avlodni o‘zining ma’lum an’analalariga amal qilib, ularga o‘z hissasini qo‘sadi, ulami o‘zgartiradi, yangi tarixiy sharoitda yuzaga kelgan yangi fikr va tuyg‘ular bilan boyitadi.

“An’ana” tushunchasi “urf-odat” bilan mustahkam bog‘langan. An’ana ijtimoiy munosabatlarning barcha shakllariga taalluqli bo‘lib, hajm va mazmun jihatidan urf-odatdan kengroqdir. Urf-odatlar orqali shaxs jamoa bilan chambarchas bog‘lanadi, jamoaning ijtimoiy va axloqiy normalarini anglab, qabul qiladi.

Urf-odatlar insonning ham hissiyotiga, ham tafakkuriga kuchli ta'sir eruvchi hodisadir. Ular insonda turli kechinma va hissiyotlarni yuzaga keltiradi.. Inson turmushidagi urf-odatlar ma'lum darajada odamning o'z -o'zini, ijtimoiy burchini anglashga, shaxs sifatida shakllanishiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Ular odamlarga hayot kechirish, kurashish uchun ijtimoiy yo'l-yo'riqlar beradi. Bu xususiyat uzoq o'tmishdan tortib, bizning davrimizgacha davom etadi.

Urf-odatlar oilaviy turmush munosabatlarining, axloqiy normalarning mayda tafsilotlarida namoyon bo'ladi. Xotin -qizlar bilan munosabatda bo'lish tartiblari, ular bilan salomlashish qoidalari, keksalarga ko'rsatiladigan hurmat-ehtirom, mehmonorlik va mezbonlik qoidalari, dafn marosimlariga borish va boshqa shu kabi urf-odat bolalar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

An'analardan farqli o'laroq urf-odatlar kishilarning ishlab chiqarishdan tashqari faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun urf-odatlar nisbatan barqaror ijtimoiy munosabatlar yig'indisi hisoblanib, ko'pincha jamoatchilik fikriga tayanadi. Xulosa qilib aytganda, kishilarning mustahkam qaror topgan urf-odatlari, hulq-atvor qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarning norma va prinsiplari yig'indisidir. Maishiy hayot va oilaviy turmush urf-odat bilan chambarchas bog'langan hodisadir. Ular kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan va rivojlanib boradigan obyektiv hodisa bo'lib, jamiyat tarixining ilk davrida vujudga kelgan. Har bir oilaning ichki tartibi, boshqa oilalardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi, ya'ni har bir oilada dam olish, mehnatni uyushtirish, bayramlarni nishonlash, o'zaro munosabatlarga kirishda o'ziga xoslik bor.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun tarbiya darslari nafaqat bilim berish, balki shaxsni shakllantirish va uning ruhiy holatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlarni o'rganish jarayoni esa bolalarning psixologik rivojlanishi uchun zaruriy asoslarni taqdim etadi. Yuqorida fikrlarni hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda milliy qadriyatlarni o'rgatishning psixologik asoslarini ko'rib chiqamiz.

1. O'zlik hissi shakllantirish, Milliy qadriyatlarni o'rganish bolalarda o'zlik hissini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'z millatiga oid an'analar, urf-odatlar va qadriyatlар haqida ma'lumot olish orqali bolalar o'zlarini jamiyatning bir qismi sifatida his qilishadi. Bu jarayon, bolaning o'zligini anglashlariga imkon yaratadi.

2. Axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni: Tarbiya darslarida milliy qadriyatlarni o'rganish bolalarga axloqiy me'yorlarni tushunish va qabul qilishda yordam beradi. Milliy qadriyatlarni, masalan, mehmono'stlik,adolat, samimiyyat kabi tushunchalar bolalarning axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu, ularning ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi.

3. Emotsional rivojlanish: Milliy qadriyatlarni o'rganish bolalarning emotsional barqarorligini oshiradi. O'z madaniyati va an'analariga nisbatan faxrlanish hissi bolalarda ijobiy emotsiyalarni keltirib chiqaradi. Tarbiya darslari davomida bolalar o'z his-tuyg'ularini ifoda etish, boshqalar bilan muloqot qilish va empatiya ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

4. Ijtimoiy ko'nikmalar: Milliy qadriyatlarni bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tarbiya darslarida guruhda ishlash, jamoaviy faoliyatlarda ishtirok etish orqali bolalar bir-biriga yordam berish, fikr almashish va

hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu, ularning do‘slik aloqalarini o‘rnatish va ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.

5. Madaniy merosni saqlash: Tarbiya darslari orqali bolalar milliy qadriyatlarni o‘rganish orqali ni saqlab qolishga hissa qo‘shadilar. Ular tarix, an'analar va urf-odatlarni bilibmadaniy meros, ulardan foydalanish orqali kelajak avlodlarga yetkazishda ishtirok etadilar.

6. O‘qituvchilarning roli: Ota-onalar, tarbiyachilar va o‘qituvchilar milliy qadriyatlarni bolalarga o‘rgatishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning yondashuvi va qadriyatlarga nisbatan munosabatlari bolalarning shaxsiyatiga ta’sir qiladi. Pedagoglar milliy qadriyatlarni faol ravishda o‘rgatib, bolalarning qiziqishini oshirishi va bola shaxsini rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasi jarayonida milliy qadriyatlarni o‘rgatish, bola shaxsi va ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlarni dars jarayonlarida o‘rganish, bolalarda o‘zligini anglash, madaniyatga hurmat va sevgi hissini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dars jarayonu orqali milliy qadriyatlarni o‘rgatishning psixologik assoslari va uning ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

Milliy qadriyatlар o‘zlikni anglash. Milliy qadriyatlар har bir xalqning madaniyati, urf-odatlari va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Bolalar uchun bu qadriyatlар, o‘z xalqining tarixini va madaniyatini anglashda, o‘zligini shakllantirishda muhimdir. Darslarda milliy qadriyatlarni o‘rganish, bolalarda o‘ziga xos identifikatsiyani kuchaytiradi va ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi.

Psixologik rivojlanish va tarbiya. Bolalar tarbiyasida psixologik jihatlar juda muhimdir. Darslarda milliy qadriyatlarni o‘rgatish jarayonida bolalar ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Urf-odatlar va an'analar orqali bolalar hissiyotlarini ifoda etishni, boshqalar bilan muloqot qilishni va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishni o‘rganadilar. Bu jarayon bolalarning emotsional intellektini oshirishga yordam beradi va ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Oila va jamiyat tarbiya manbai. Oila - bolalar tarbiyasining asosiy manbai. Oila muhitida bolalar milliy qadriyatlар haqida dastlabki tushunchalarni oladilar. Ota-onalar va qarindoshlar orqali ularga urf-odatlar, an'analar va axloqiy me'yorlar haqida ma'lumot beriladi. Bu jarayon, bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga hamda oilaviy qadriyatlarni saqlab qolishga hissa qo‘shadi.

Darslarda milliy qadriyatlarni o‘rganish usullari. Dars jarayonida milliy qadriyatlarni o‘rganish uchun interaktiv usullarni qo‘llash muhimdir. O‘yinlar, muhokamalar, loyiha ishlari orqali bolalar qiziqarli va samarali tarzda milliy qadriyatlarni o‘zlashtiradilar. Bu usullar, bolalarda ijodkorlikni, tanqidiy fikrlashni va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darslar orqali milliy qadriyatlarni o‘rgatish psixologik jihatdan muhimdir. Bu jarayon bola shaxsi va ruhiy holatini rivojlantirishga, ijtimoiy ko‘nikmalarini oshirishga va madaniy merosni saqlab qolishga hissa qo‘shadi. Milliy qadriyatlarni tarbiyalash orqali bolalar o‘zligini anglashadi, shuningdek, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga tayyorlanadilar. Shuning uchun darslarini mazmunli va qiziqarli qilib tashkil etish zarur.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev – “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent, “O‘zbekiston” – 2017. 157-158-betlar
2. Nishanova Z. Kamilova N.va bosh. “Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya”. Darslik. T:.2018
3. E.G’oziyev ”Ontogenetik psixologiyasi”. O’quv qollanma. T-2020..
4. Abdullayeva Barno Sayfutdinovna>Tursunova Malika Baxtiyor qizi
“BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYA FANI”. DARSLIK. Toshkent – 2022
5. Isaxanova Moxidil Erkinovna “FORMATION OF SELF-ESTEEM IN SMALL SCHOOL-AGE STUDENTS”. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 11, Issue 12, December (2023)